

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.2502 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MIRZATILLAYEV JAHONGIR O‘KTAMJON O‘G‘LI

**TERGOV ORGANLARINING XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI
ORGANLARI BILAN O‘ZARO HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Mirzatillayev Jahongir O‘ktamjon o‘g‘li Tergov organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligini takomillashtirish.....	3
Mirzatillayev Jahongir O‘ktamjon ugli Совершенствования взаимодействия следственных органов с уполномоченными органами иностранных государств	25
Mirzatillayev Jahongir O‘ktamjon ogli Improving cooperation between investigative bodies and authorized bodies of foreign states	47
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	51

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1578 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va "Ziyonet" axborot ta'lim portaliga (<http://library.ziyonet.uz/uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimova Dilrabo Ergashevna
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Murodov Baxtiyorjon Bahodirovich
yuridik fanlar doktori, professor

Abdurahimov Muxtor Xodjiakbarovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 30-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akad.mvd.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1679-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17-dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 17-dekabrda 31-raqamli reyestr bayonnomasi).



A.S.Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D.Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A.Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.2502 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MIRZATILLAYEV JAHONGIR O‘KTAMJON O‘G‘LI

**TERGOV ORGANLARINING XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI
ORGANLARI BILAN O‘ZARO HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1578 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz>) va Ziyonet axborot ta’lim portaliga (<http://library.ziyonet.uz/uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimova Dilrabo Ergashevna

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Murodov Baxtiyorjon Bahodirovich

yuridik fanlar doktori, professor

Abdurahimov Muxtor Xodjiakbarovich

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 - yil “30”- dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akad.mvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1679 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “17” dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil “17” dekabrda 31-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.S.Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

A.D.Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Sh.A.Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xalqaro hamkorligini protsessual tartibini mustahkamlash, jumladan jinoyat ishlarini yuritishga vakolatli organlar bilan o'zaro axborot almashinuvi, qo'shma tergov harakatlari va huquqiy yordamni tashkil etishda samarali mexanizmlarni joriy etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, har yili dunyo bo'ylab taxminan 378 million kishi kiberjinoyatlar, 275 million kishi giyohvandlik savdosi, 23 ming kishi terrorizm, 20 ming kishi esa odam savdosi kabi transmilliy jinoyatlardan jabrlanmoqda¹. Bu esa o'z navbatida xalqaro hamjamiyat va davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari o'rtasida jinoyat ishlarini yuritish sohasida chuqur, tizimli va ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalarga ko'ra, har bir sodir etilgan jinoyat o'z vaqtida va to'liq fosh etilishi, jinoyatni sodir etgan shaxsning aybi qonun talablariga muvofiq isbotlanishi hamda jabrlanuvchi shaxsning huquqlari tiklanishi va yetkazilgan barcha turdagi moddiy va ma'naviy zarar to'liq qoplanishi shartligi qayd etilgan².

Jahonda jinoyat ishlari bo'yicha vakolatli organlarning tergov harakatlarini hamkorlikda o'tkazishning protsessual tartibi, huquqiy, tashkiliy va taktik jihatlarini, jumladan, xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlardagi bo'shliqlarni bartaraf etish, jinoyat-protsessual qonunchilikka qat'iy rioya qilish, shuningdek, kiberjinoyatlar, qurol-yarog' savdosi, giyohvandlik vositalari hamda odam savdosi kabi jinoyatlarning kriminalistik tavsifini o'rganish, ularning oldini olish va qarshi kurashishda vakolatli organlar o'rtasida hamkorlikning samaradorligini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mamlakatimizga xorijiy davlatlar fuqarolarining turli maqsadlarda kelishi yaqin yillarda sezilarli darajada ortib, ular tomonidan jinoyat sodir etish holatlari, shuningdek, O'zbekiston fuqarolarining ham xorijiy davlatlarda jinoyat sodir etish ko'rsatkichi oshib borayotganligi vakolatli organlar o'rtasida hamkorlikning protsessual tartibini yanada takomillashtirishning dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2022-yilda 901 138 nafar, 2023-yilda 1 759 984 nafar, 2024-yilda 2 828 359 nafar, 2025-yilning 11 oyida 6 396 364 nafar xorijiy davlat fuqarolari O'zbekistonga kirib kelganligi qayd qilingan³. Bugungi kunda tergov bo'linmalari xodimlarining xorijiy tillarni yetarlicha bilmasligi, chet davlatga yuborilayotgan jinoyat ishlari va so'rovlar tarjimasining sifatsizligi, aksariyat kiberjinoyatlar xorijda turib sodir etilayotganligi sababli ushbu jinoyatlarning fosh etilmasdan qolayotganligi, xorijda

¹Кибервойна. URL: <http://itsec.ru/articles2/cyberwar>; В мире в 2021 году произошло более семи тысяч терактов. URL: <https://russian.rt.com/world/news/914778-sovbez-zhertva-terakt>; Доклады Международного комитета по контролю над наркотиками за 2023 год. URL: https://unis.unvienna.org/pdf/2022/INCB/INCB_2021_Report_R.pdf, <https://www.unodc.org/unodc/en/data-and-analysis/index.html>, <https://www.un.org/ru/youthink/corruption.shtml>.

² Декларация основных принципов правосудия для жертв преступления и злоупотребления властью (утв. Резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН 40/34 от 29 ноября 1985 г.) /Международные акты о правах человека сбор. документов. – М.: 2019. – С. 166-169. Мурожаат қилинган сана: 05.08.2025 йил

³ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги М ва ФРБнинг расмий ҳисobotларидан.

sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan fuqarolarimizning yurtimizga kelib murojaat qilish holatlari mavjudligi, ushbu holatda tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlarini o'tkazish uchun xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlikning zarurligi, tergov bo'linmalarining xorijiydavlatning vakolatli organlariga so'rovlar yuborishda bir qancha to'siqlarga uchrayotganligi natijasida dalillar to'planmayotganligi, xorijdagi protsess ishtirokchilarini O'zbekistonga chaqirishda muammolarning mavjudligi, xorijga yuborilgan so'rovlar ijro etilmasdan qolib ketayotganligi yoki to'liq ijro etilmay qaytarib yuborilayotganligi jinoiy ishlar bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlikning protsessual tartibini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (30.04.2023), Jinoyat kodeksi (1994), Jinoyat-protsessual kodeksi (1994), "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonuni (06.02.2019), 2020 yil-17 noyabrdagi PQ-4895-son "1993-yil-22 yanvar va 2002-yil 7-oktabrdagi "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquqi va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Amalda qo'yilgan muammo hali mustaqil tadqiqot ishi sifatida mukammal ravishda o'rganilmagan. Lekin ushbu masalaning ayrim jihatlari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlaridan G.Abdurazzoqov, V.A.Artikova, I.R.Astanov, S.N.Gordeyev, A.K.Zakrullayev, Z.F.Inog'omjonova, B.B.Ismoilov, D.E.Karimova, S.Kaxarov, Sh.A.Kulmatov, G.A.Matkarimova, D.M.Mirazov, B.B.Murodov, V.Ortikov, B.A.Rajabov, B.N.Rashidov, M.A.Radjabova, M.X.Rustambayev, T.R.Saitbayev, B.A.Saidov, D.Sattorov, A.A.Xamdov, D.A.Egamberdiyev va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Shu bilan birga mavzuga doir masalalar yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ichida R.A.Sayfulov amaldagi muammoni IIV va prokuratura materiallari asosida o'rgangan, Sh.F.Fayziyev davlatlar o'rtasida o'zaro huquqiy yordam ko'rsatishga oid munosabatlarni xalqaro-huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etganligini alohida ko'rsatish kerak. D.Sh.Umarxonova ekstraditsiya bo'yicha xalqaro-

huquqiy hamkorlik va jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish muammosini tadqiq etgan.

Chet el olimlaridan P.S.Abdulloyev, O.I.Aleksandrova, A.I.Boytsov, E.I.Damirchiyev, B.Fraxi, I.Yu.Grin, A.S.Grishin, T.T.Kazikanov, E.V.Karaseva, K.E.Kolibab, T.Korontzis, R.Kyurri, L.A.Lazutin, N.N.Mazayeva, Yu.V.Minkova, V.V.Milinchuk, K.Ye.Mixaylenko, D.Vervalle, A.G.Veniaminov, A.G.Volevodz, V.M.Voljenkina, V.V.Shcherbakov, M.M.Shamsutdinov va boshqalar tomonidan masalaning xalqaro-huquqiy, jinoyat-protsessual jihatlarini tadqiq etilgan⁴.

Biroq amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro huquq normalari hamda xorij davlatlarining ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda tergov organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorligining jinoyat-protsessual va kriminalistik jihatlarini ifodalovchi umumnazariy va amaliy masalalar maxsus tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Jinoyat ishlari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan xalqaro hamkorlikning jinoyat-protsessual, kriminalistik jihatlarini tavsiflash va to'plangan amaliyotni umumlashtirish, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tergov organlari va xorijiy davlatlarning shunga o'xshash vakolatli organlari o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslarini, shu jumladan, jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarni va O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchiligini tahlil qilish;

jinoyat protsessida jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik tushunchasi va uning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish;

jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning protsessual shakllari va ularni amalga oshiruvchi subyektlarni tasniflash;

jinoyat ishlari bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida so'rov yuborishning va so'rovlarning bajarilishini tahlil qilish;

tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun xorijiy davlatlar hududidan fuqarolarni chaqirish protsessual tartibini tadqiq etish;

yuridik yordam so'rovini bajarishda individual tergov harakatlarini amalga oshirishni rivojlantirishning protsessual jihatlarini tahlil etish;

tergov organlarining xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorligini yanada kengaytirishning protsessual tartibini belgilash;

tergov departamenti va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari o'rtasidagi jinoyat ishlari bo'yicha protsessual hamkorlik samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

⁴ Бу ва бошқа манбалар диссертациянинг "Фойдаланилган адабиётлар рўйхати"да келтирилган.

Tadqiqot obyekti. Jinoyat ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari o'rtasidagi protsessual munosabatlar majmuasidan iborat.

Tadqiqot predmeti. Tergov organlarining jinoyat ishlari bo'yicha xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorligini protsessual tartibi, amaldagi muammoning turli jihatlarini bo'yicha ilmiy qarashlar, shuningdek, tergov amaliyotidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ijtimoiy-huquqiy hodisalarni bilishning dialektik usuli, bilishning tizimli-tarkibiy, tarixiy, rasmiy-mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik va konkret-sotsiologik usullaridan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to'g'risidagi so'rovda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar bayoni, shuningdek, so'ralayotgan hujjatlar, ashyoviy, yozma, raqamli va boshqa dalillar ro'yxati bo'lishi kerakligi asoslantirilgan;

sud, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi xorijiy davlatning tegishli vakolatli organidan kelib tushgan, o'zlariga belgilangan tartibda topshirilgan protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida ijro etishi shartligi asoslab berilgan;

protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni ijro etishda ushbu Kodeks normalari qo'llanishi, agar bu O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lmasa xorijiy davlat vakolatli organining iltimosi bo'yicha, xorijiy davlatning protsessual qonunchiligi normalari qo'llanilishi mumkinligi asoslantirilgan;

agar so'rov O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lsa yoki uning ijrosi O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga yoxud xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, u ijro etilmasdan qaytarib yuborishi kerakligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

jinoyat protsessi, kriminalistika sohalarini rivojlantirish yuzasidan berilgan takliflar tergov organlarining xalqaro hamkorligini takomillashtirish va sohaga oid xalqaro munosabatlarning to'laqonli huquqiy tartibga solinishini ta'minlash imkonini berishi asoslantirilgan;

“jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam” va “jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik” tushunchalarining ta'rifi aniqlashtirilgan;

protsessual harakatlarni bajarish haqidagi so'rovlar chegara mintaqalari darajasidagi jinoyat ishlari bo'yicha chegara mintaqalari vakolatli organlari tomonidan so'rovlarni yuborilishini nazarda tutuvchi qonun normasini takomillashtirish taklif etilgan;

jinoyat ishi yuzasidan hamkorlik qilish jarayonida xorijiy davlat vakillarining huquqlarini kafolatlash, ularning maqomi, huquq va majburiyatlarini ta'minlash asoslantirilgan;

tergov organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishi asoslantirildi.

dastlabki tergov harakatlari davomida audio va videoyozuvlardan dalil sifatida foydalanishni tartibga solish amaliyotdagi muammolar asoslantirildi;

so'rovlarning tez va sifatli bajarilishi jinoyatlarni tez fursatlarda fosh qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamentining viloyatlardagi boshqarmalari tarkibida "Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik" bo'linma (guruh) larini tashkil etish asoslab berilgan.

jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan hollarda tegishli xorijiy yuridik shaxslar va xususiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish masalasi asoslantirilgan;

jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish sohasidagi hamkorlikning yangi samarali shakllaridan bo'lgan tergov-tezkor guruhlarini tuzish asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyotining ilg'or hamda ijobiy tajribalari, sohaga doir empirik va statistik ma'lumotlar tahlili, respublika hududlarida 400 nafar tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov organlari hamda ilmiy-pedagogik xodimlar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalarini umumlashtirish orqali isbotlangan hamda ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, yetakchi xorijiy hamda milliy nashrlarda e'lon qilingan. Shuningdek, 2020-2025-yillarda yuritilgan 72 ta tergovga qadar tekshiruv materiallari hamda 106 ta jinoyat ishlari tahlil qilingan. Olingan natijalar esa vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, jinoyat-protsessual qonunchilikning tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Kriminalistika", "Jinoyat-protsessual huquqi", "Tergov faoliyati" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarning ahamiyati jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning samaradorligini oshirishda, qonun ijodkorligi, yuridik ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida foydalanilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to'g'risidagi so'rovda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar bayoni, shuningdek so'ralayotgan hujjatlar, ashyoviy, yozma, raqamli va boshqa dalillar ro'yxati bo'lishi kerakligiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RB-1003-son Qonunining 1-moddasi 48-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi "Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorligining tartibi to'g'risidagi asosiy qoidalar" nomli 64-bobi "Protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to'g'risidagi so'rovning mazmuni va

shakli” nomli 593-moddasi birinchi qism beshinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 11.11.2024-yildagi 04/5-10-4297-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi huquqni qo‘llash amaliyotida protsessual harakatlarni xorijiy davlat hududida bajarish to‘g‘risidagi so‘rovlarni sifatli rasmiylashtirish va isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarga aniqlik kiritishga xizmat qilgan;

sud, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi xorijiy davlatning tegishli vakolatli organidan kelib tushgan, o‘zlariga belgilangan tartibda topshirilgan protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o‘zarolik prinsipi asosida ijro etishiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-442-sonli Qonunining 2-moddasi 137-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi “Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligining tartibi to‘g‘risidagi asosiy qoidalar” nomli 64-bobi “Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni O‘zbekiston Respublikasi hududida ijro etish” nomli 595-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 11.11.2024-yildagi 04/5-10-4297-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi jinoyat ishlari yuzasidan vakolatli davlat organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligini kengaytirishga, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotida mavjud huquqiy bo‘shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan;

protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni ijro etishda ushbu Kodeks normalari qo‘llanishi, agar bu O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lmasa xorijiy davlat vakolatli organining iltimosi bo‘yicha, xorijiy davlatning protsessual qonunchiligi normalari qo‘llanilishi mumkinligiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-683-sonli Qonunining 48-moddasi 33-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi “Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligining tartibi to‘g‘risidagi asosiy qoidalar” nomli 64-bobi “Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni O‘zbekiston Respublikasi hududida ijro etish” nomli 595-moddasi to‘rtinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 11.11.2024-yildagi 04/5-10-4297-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida ijro etish bilan bog‘liq huquqiy bo‘shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan;

agar so‘rov O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lsa yoki uning ijrosi O‘zbekiston Respublikasi suverenitetiga yoxud xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa, u ijro etilmasdan qaytarib yuborishi kerakligiga oid takliflardan

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-683-sonli Qonunining 48-moddasi 33-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi “Sudlar, prokurorlar, tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligining tartibi to‘g‘risidagi asosiy qoidalar” nomli 64-bobi “Protsessual harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi so‘rovni O‘zbekiston Respublikasi hududida ijro etish” nomli 595-moddasi yettinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining 11.11.2024-yildagi 04/5-10-4297-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi jinoyat ishlari yuzasidan vakolatli davlat organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligini kengaytirishga, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotida mavjud huquqiy bo‘shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot aprobatsiyadan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta, xalqaro jurnallarda 5 ta va ilmiy anjumanlarda 5 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning hajmi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning elon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tergov organlarining xalqaro hamkorligining umumiy xususiyatlari**” deb nomlanib, unda xalqaro hamkorlik tushunchasi, protsessual tartibi va uning tarixiy rivojlanishi, tergov organlari faoliyatida xalqaro hamkorlikning ijtimoiy zaruriyati hamda huquqiy asosi tahlil qilingan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi “**Jinoyat protsessida xalqaro hamkorlik tushunchasi va uning retrospektiv tahlili**” deb nomlanib, unda jinoyat ishlari yuzasidan xalqaro hamkorlik sohasidagi davlatlarning o‘zaro munosabatlarini huquqiy tartibga solishning tarixiy ildizlari va protsessual tartibi o‘rganilgan, shuningdek, bir qator olimlarning jinoyat-protsessual sohasidagi davlatlarning o‘zaro hamkorligiga oid dastlabki qarashlari tadqiq etilgan holda, dissertant jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlikning huquqiy

mexanizmlari hisoblangan ekstraditsiya, o‘zaro huquqiy yordam masalalarini bir-biridan farqlash hamda ularning mazmun-mohiyatini tahlil etish muhim hisoblanadi, degan fikrni ilgari suradi.

Tadqiqotchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari, jinoyat ishlari yuzasidan amalga oshiriladigan protsessual harakatlar doirasi va ular bo‘yicha qabul qilinuvchi protsessual qarorlar asosida jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida “Jinoyat ishlari bo‘yicha tergov organlarining o‘zaro hamkorligi” jumlasiga o‘zining mualliflik tarifini keltirgan.

Dissertatsiya doirasida jinoyat-protsessida xalqaro hamkorlik mexanizmlarini tahlil etish masalasi yuzasidan A.G.Volevodz, N.N.Mazayeva, E.V.Karaseva, N.I.Mariysheva, V.V.Sherbakov, V.P.Shupilov, D.Sh.Umarxonova kabi olimlarning fikrlari o‘rganilib, jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish, jinoyat ishlari yuzasidan amalga oshiriladigan xalqaro hamkorlikning bugungi ahvoli, asosiy yo‘nalishlari batafsil tahlil etilgan.

Shuningdek, **“jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro yordam”** va **“jinoyat ishlari bo‘yicha hamkorlik”** ta’riflari o‘rtasidagi farq sof terminologik emasligi, chunki hamkorlik deganda, umumiy faoliyatda ishtirok etishda ifodalangan muayyan harakatlar anglashiladi, degan xulosaga kelingan. Yordam ko‘rsatish faqat manfaatlarga taalluqli ish bo‘lgan taqdirdagina bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, dissertant A.G.Volevodz, N.N.Mazayeva, E.V.Karaseva, N.I.Mariysheva, V.V.Sherbakov, V.P.Shupilov, D.Sh.Umarxonovalarning fikrlarini “o‘zaro huquqiy yordam” va “jinoyat ishlari bo‘yicha hamkorlik” tushunchalarini farqlash nuqtai nazaridan keltirgan. Dissertant yuqoridagi tafovutlarni oqlash to‘liq muvaffaqiyatli emas, deb hisoblagani holda “jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam” va “jinoyat ishlari bo‘yicha hamkorlik” tushunchalari bir xil emas degan xulosaga keladi. Jinoyat ishlari bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam faqat xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qilish organlarining so‘rovlari asosida amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Tergov organlari faoliyatida xalqaro hamkorlikning ijtimoiy zaruriyati va huquqiy tahlili”** deb nomlanib, unda xalqaro hamkorlikning tergov sohasidagi ijtimoiy ahamiyati, jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlararo shartnoma amaliyotining muhim xususiyatlari, hamkorlikni amalga oshirishda faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari, jinoyat ishlari yuzasidan xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning asosiy tamoyillari atroflicha yoritilgan. Jumladan, jinoyat protsessida xalqaro hamkorlik tushunchasi va ahamiyatini yoritish bilan birga, mamlakatimizning jinoyat ishlari yuzasidan xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorligining protsessual tartibida mavjud va vujudga kelayotgan muammolar ilmiy jihatdan o‘rganilib, statistik malumotlar bilan asoslab berilgan.

Bundan tashqari, mamlakatimiz hududida xavfsizlikni ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda yuqori samaradorlikka erishishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida xorijiy davlatlar huquqni muhofaza qilish organlari bilan jinoyat ishlari bo‘yicha protsessual hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, jinoyatlarning oldini olish, fosh etish, aybdor shaxslarning aybini isbot qilish, jinoyat-protsessual munosabatlarda shaxslarning huquq va erkinliklarini to‘liq ta‘minlash hamda jinoyat ishlari

yuzasidan hamkorlik qilish bo'yicha tergov sohasida xalqaro hamkorlikni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini tizimlashtirish masalasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, D.Sh.Umarxanova, V.P.Zimin, E.V.Karaseva va boshqa olimlarning fikrlarini tahlil qilib, jinoyat ishlari bo'yicha davlatlar hamkorligida qo'llaniladigan xalqaro-huquqiy hujjatlarni tasniflashga e'tibor qaratib, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslarini aks ettiruvchi o'zining mualliflik tasnifini ishlab chiqqan.

Dissertatsiyaning "**Tergov organlarining xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorligining protsessual tartibi**" nomli ikkinchi bobida jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning shakllari va ularni amalga oshiruvchi subyektlar o'rganilgan, tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish, shuningdek, xorijiy davlat fuqarolarini chaqirish yuzasidan mavjud muammolar o'rganilib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan hamda ularning yechimi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, tergov organlarining jinoyat ishlari bo'yicha xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorligi jarayonida xorijiy davlat vakillarining maqomi, huquqiy statusi aniqlanib, ularning yuridik yordam so'rovlaridagi ishtirokining protsessual tartibi ishlab chiqilib, mexanizmi yoritib berilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi "**Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning shakllari va ularni amalga oshiruvchi subyektlar**" deb nomlanib, unda jinoyat ishlari yuzasidan xalqaro hamkorlikning shakllari va uni amalga oshiruvchi subyektlar konsepsiyasi yuzasidan fikrlar keltirilgan. Dissertant jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik subyektlari ham faqat tegishli organlarga jinoyat protsessini amalga oshirishda yordam beradigan shaxslar hisoblanadi, degan fikrni ta'kidlaydi. Milliy qonunchilik, xalqaro huquq normalarini tahlil qilish jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik subyekti xususiyatlariga ega bo'lgan bir qator boshqa ishtirokchilarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Tadqiqotchi yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqqani holda jinoyat ishlari yuzasidan hamkorlikni amalga oshiruvchi subyektlarning mualliflik tasnifini keltiradi.

1. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshiruvchi subyektlar.

Bu guruhga ish bo'yicha ish yurituvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar kiradi. Bu xorijiy davlatning tegishli vakolatlariga ega bo'lgan vakolatli organlari va mansabdor shaxslariga ham taalluqlidir. Ular davlat nomidan jinoyat protsessida ishtirok etib, jinoyat ishining boshlanishi, yo'nalishi va taqdirini hal qiladilar.

2. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirishga ko'maklashuvchi subyektlar.

Bu subyektlar jinoyat protsessi ishtirokchilari emas, balki o'zlariga yuklangan vakolatlari bilan bog'liq holda protsessual harakatlarni amalga oshirishga ko'maklashadilar, vakolatli organlar va xorijiy davlatlarning mansabdor shaxslari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydilar.

3. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ishtirok etuvchi subyektlar.

a) jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar.

Bu guruh o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jinoyat protsessiga jalb qilingan yoki ishtirok etishga ruxsat berilgan subyektlar yoki

ular tomonidan vakillik qilingan shaxslardan iborat. Bularga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning himoyachilari, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, vakillar va qonuniy vakillar kiradi. Qonunchilik ushbu shaxslarga sud protsessida faol ishtirok etish imkoniyatini berib, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini real himoya qilishni ta'minlaydigan keng qamrovli kafolatlar tizimini o'rnatadi.

b) jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda maxsus vazifa bajaruvchi subyektlar.

Bu huquqlar doirasi sezilarli darajada kichik bo'lgan, ishda o'z yoki vakillik manfaatiga ega bo'lmagan va protsessda ishtirok etayotgan yoki jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risida ma'lumot berish (guvohlar) yoki maxsus bilimlarni qo'llash uchun ishtirok etuvchi (ekspert, mutaxassis) yoki vakolatli organlarga har qanday boshqa shaklda yordam ko'rsatuvchi (guvohlar, tarjimon va boshqa) subyektlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi "**Tergov organlari tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida so'rovlarni yuborish va bajarilishning protsessual tartibi**" deb nomlanib, unda dissertant tergov organlarining jinoyat ishlari bo'yicha yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida so'rovlarni yuborish va bajarilish mexanizmini bosqichlarga bo'lish asosida tadqiq qilgan.

Birinchi bosqich. O'zbekiston Respublikasi JPKning 592-moddasiga binoan surishtiruvchi, tergovchi, sud, prokuror xorijiy davlatning tegishli vakolatli organidan kelib tushgan, o'zlariga belgilangan tartibda topshirilgan protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi so'rovni O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zarolik prinsipi asosida ijro etadi. Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning fuqaroligidan qat'iy nazar, tergov harakatlari boshqa davlat hududida amalga oshirilgan hollarda, shuningdek, boshqa davlatlar hududida yashovchi yoki ilgari yashagan jarayon ishtirokchilari to'g'risida tezkor ma'lumotnoma va sud-tibbiy ma'lumotlarni olish uchun o'zaro hamkorlik qilish zarurati paydo bo'ladi.

Bular quyidagilar:

jinoyat bir necha davlat hududida sodir etilgan bo'lsa (bir davlat hududida boshlanib, boshqa davlat hududida tugallangan);

jinoiy faoliyatning ayrim epizodlari boshqa davlatlar hududida sodir etilgan;

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxslar jinoyat sodir etganidan keyin boshqa davlat hududida yashiringan;

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan, lekin O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar boshqa davlat hududida, shu jumladan, o'zlari fuqarosi bo'lgan davlat hududida yashiringan;

jarayonning individual ishtirokchilari (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh va boshqalar) turli davlatlar fuqarolari yoki turli davlatlar hududida istiqomat qiluvchilar bo'lsa;

ashyoviy dalillar xorijiy davlat hududida joylashgan bo'lsa.

Ikkinchi bosqich. Xalqaro shartnomalar mazmunidan kelib chiqib, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik jarayonida yuboriladigan va bajariladigan so'rovlarning uch turini ajratish mumkin:

a) natijalari dalil bo'lishi kerak bo'lgan harakatlarni amalga oshirish to'g'risidagi so'rovlar;

b) jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi so'rovlar;

v) ekstraditsiya qilish to'g'risidagi so'rovlar.

So'rovni yuborish va ijro etish faqat qo'zg'atilgan, ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha, jinoyatlarni tergov qilish uchun belgilangan protsessual muddatni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. So'rov jinoyat ishini yurituvchi bo'limning vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan beriladi.

Uchinchi va to'rtinchi bosqichlar. Xorijiy davlatlarning vakolatli organlari va mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasining iltimosiga binoan, xalqaro huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyati ushbu davlatlarning milliy qonunchiligi bilan, shuningdek, xalqaro shartnomalar talablariga muvofiq tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasidan jinoyat ishi bo'yicha yordam so'rovini olgandan so'ng, xorijiy organ uni to'liq yoki qisman bajarish imkoniyatini ko'rib chiqadi va qaror qabul qiladi yoki uni bajarishni rad etadi. Hamkorlik qiluvchi davlatlarning vakolatli vakillari so'rovni bajarishning o'zaro maqbul usulini ishlab chiqish bo'yicha muzokaralar olib boradilar. Jinoyat ishida yordam berishga rozilik berilgan taqdirda, ijro etuvchi organ, topshiriqni bajarish vaqti va joyi belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi tomoni qaror haqida xabardor qilinadi. So'rovni bajarish natijalari davlatlar o'rtasida kelishilgan tartibda so'rov yuborgan O'zbekiston Respublikasi organiga yuboriladi.

Beshinchi bosqich. O'zbekiston Respublikasi JPKning 594-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda tasdiqlangan va topshirilgan dalillar O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlari tomonidan olingan dalillar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini belgilaydi. Dalillarning yuridik kuchining tengligi prinsipi xalqaro hamkorlikning mazmuni va chegaralarini belgilovchi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillaridan biridir. Shu bilan birga, qonuniy kuchga ega bo'lish uchun xorijiy davlatning vakolatli organlari yoki mansabdor shaxslari tomonidan olingan dalillar muayyan talablarga javob berishi kerak. Birinchidan, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmagan, inson qadr-qimmatini kamsitish, qiynoqqa solish, zo'ravonlik va boshqa shafqatsiz munosabatda bo'lishni taqiqlovchi xorijiy davlat qonunlarini qo'llash orqali olinishi kerak. Ikkinchidan, so'rovning sharti va uning bajarilishiga rioya qilinish kerak. O'zbekiston Respublikasi organlari tomonidan olingan dalillar bu haqida qaror bilan jinoyat ishiga ilova qilinishi kerak. Huquqni muhofaza qilish organlarining subyektlari tomonidan olingan dalillarni tekshirish va baholash majburiyatidan ozod etilmaydi va bunday dalillar O'zbekiston Respublikasi JPKda belgilangan umumiy qoidalarga muvofiq baholanishi kerak.

Dissertant ushbu paragrafda O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti tomonidan xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga yuborilgan hamda xorijiy davlatlarning vakolatli organlaridan kelib tushgan so'rovlarning o'sish hamda

pasayish tendensiyalarini statistik ma'lumotlar asosida tadqiq etgan. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti ma'lumotlariga ko'ra, IIV huzuridagi tergov organlaridan xorijiy davlatlarning vakolatli organlari tomonidan so'ralgan yuridik yordam hajmi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'sis subyektlari tomonidan yuborilgan so'rovlar o'sish tendensiyasiga ega. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamentidan jinoyat ishlari bo'yicha xorijiy davlatlar vakolatli organlariga 2020-yilda 81 ta, 2021-yilda 84 ta, 2022-yilda 95 ta, 2023-yilda 109 ta, 2024-yilda 104 ta, 2025-yil noyabr oyigacha bo'lgan davrda 67 ta so'rov yuborilgan. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamentiga xorijiy davlat vakolatli organlaridan 2020-yilda 558 ta, 2021-yilda 717 ta, 2022-yilda 727 ta, 2023-yilda 815 ta, 2024-yilda 770 ta, 2025-yil noyabr oyigacha bo'lgan davrda 1235 ta so'rov kelib tushgan⁵.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuridik yordam bo'yicha eng ko'p so'rovlar O'zbekistonning vakolatli organlariga MDH davlatlaridan keladi. 2024-yilda olingan 770 ta so'rovning 720 tasi (93 foiz) MDH davlatlaridan, 50 tasi (7 foiz) Yevropa mamlakatlari va uzoq xorijiy mamlakatlardan kelgan. 2025-yilda jami 1235 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan, 1195 tasi (96,8 foiz) MDH davlatlaridan, 40 tasi (3,2 foiz) Yevropa va uzoq xorij davlatlaridan olingan.

Shunday qilib, tahlil qilingan davrda 1993-yilgi Minsk va 2002-yildagi Kishinyov konvensiyalari (MDH mamlakatlari uchun) asosida O'zbekistondan so'rovlar soni 40,5 foizga o'sgan: ya'ni 2020 yildagi 558 ta so'rovdan 2025 yilda esa 1235 ta, ularning uchdan ikki qismi Rossiya va Belorussiya davlatlarining vakolatli organlardan kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tergov orgalari tomonidan boshqa mamlakatlardan olingan so'rovlar bo'yicha ko'rsatilgan yuridik yordam hajmi deyarli uch baravar oshdi (2020-yilda 558-ta, 2021-yilda 717 ta, 2022-yilda 727 ta, 2023-yilda 815 ta, 2024-yilda 770 ta, 2025-yil noyabr oyigacha bo'lgan davrda 1235 ta). Bundan tashqari, 2020-2025 yillarda so'rovlarning to'rtidan uch qismi MDH mamlakatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iston, Belorussiya, Tojikiston, Ozarbayjon) vakolatli organlaridan kelib tushgan va olingan so'rovlar bo'yicha katta miqdordagi yuridik yordam ko'rsatilgan⁶.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPKning 599-moddasiga muvofiq, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti 390 ta ekstraditsiya materiallarini qabul qildi, ulardan 231 tasiga ekstraditsiya qilinishiga ruxsat berilgan, 59 tasi rad etilgan, 2023-yilda esa 354 ta material kelib tushgan, ulardan 343 tasiga ruxsat berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi JPKning 601-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti tomonidan 2022-yilda xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga ekstraditsiya to'g'risida 598 ta so'rov yuborilgan, ulardan 449 tasi qanoatlantirilgan, 26 tasi rad etilgan, 2023-yilda bu ko'rsatkich 468 tani tashkil etib, ulardan 309 tasi qanoatlantirilgan, 159 tasi esa rad

⁵ Ўзбекистон Республикаси ИИВ хузуридаги Тergov департаментининг расмий хисоботи. 10.11.2025 йилдаги 18/8620-сонли алоқа хати.

⁶ Ўша манба.

etilgan, 2024-yilda 447 ta so'rov yuborilgan, 39 tasi rad etilgan, 2025-yil 11 oyi davomida 434 ta so'rov yuborilgan 26 tasi rad etilgan⁷.

Dissertant yuborilgan so'rovlarning bajarilmasligining asosiy sabablari sifatida: so'rov va uning ilovalari sifatsizligi; noto'g'ri tarjima yoki tarjimaning mavjud emasligi; tergov harakatlarini o'tkazish zarur bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlarning mavjud emasligi; jinoyat ishi bo'yicha muayyan tergov harakatlarini qanday daliliy maqsadlarda amalga oshirish zarurligi to'g'ri asoslanmaganligi; so'roq qilinishi kerak bo'lgan shaxslar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarning mavjud emasligi; jinoyat hodisasining yetarli darajada to'liq tavsiflanmaganligi; O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi normalari haqida ma'lumot yo'qligi holatlarini keltiradi. Bular natijasida yuridik yordam so'rovlari ijrosiz qoldirilib, so'ragan davlatga qaytarilib yuborilishini takidlab o'tadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlari tomonidan yuridik yordam so'rovini yuborish jarayoni bir necha bosqichlardan o'tishi izohlangan:

1) O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tomonidan xorijiy davlatdan so'rovni olish va tegishli qaror qabul qilish, unda ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish imkoniyati va hajmi;

2) O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tomonidan olingan so'rovni bajarish uchun zarur bo'lgan harakatlarning amalda bajarilishi;

3) So'rovni bajarish natijalarini xorijiy davlatning vakolatli organiga yuborish.

Dissertant jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatishda samarali hamkorlikning muhim muammosi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham, O'zbekiston Respublikasi JPKda ham qonun hujjatlarini ijro etishning aniq muddatlari tartibga solinmaganligida deb ta'kidlaydi. Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasidagi mavjud qarashlar atroflicha o'rganilib, jinoyat ishlari bo'yicha yuridik yordam ko'rsatishning aniq muddatlari belgilab qo'yilmaganligi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida jinoyat ishini yuritish uchun belgilangan muddatlardan oshib ketishiga, bu esa ko'pincha tergovning asossiz kechiktirilishiga olib kelayotganligi tahlil qilingan. Respondentlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovga ko'ra, 80 foiz hollarda ular tomonidan xalqaro so'rovlarni bajarish muddati so'ralgan yordam miqdoriga qarab o'rtacha o'n kundan o'ttiz kungacha bo'lgan vaqtni tashkil etganligi ma'lum qilingan.

Tadqiqotchi o'zaro yuridik yordam ko'rsatishda idoralararo kelishuv muhim deb hisoblaydi. Ikki davlatning tergov organlarining o'zaro hamkorligi amalda mavjud bo'lgan jinoyat ishlarini sifatli tergov qilishga, jinoyatlarni tez muddatlarda fosh etishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "**Tergov va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun xorijiy davlatlar hududidan fuqarolarni chaqirish tartibi**" deb nomlanib, unda tergov yoki boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun guvoh, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan ekspertni chaqirilishini

⁷ Ўзбекистон Республикаси ИИВ хузуридаги Тергов департаментининг 10.11.2025 йилдаги 18/8620-сонли алоқа хати.

protsessual tartibini, ixtiyoriylik prinsipining qo'llanilishi hamda immunitetning mavjudligi masalalari tadqiq etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tergov organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan hamkorligini yanada kengaytirishning istiqbollari”** deb nomlanib, unda jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda individual tergov harakatlarini amalga oshirishni rivojlantirishning xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tergov organlarining jinoyat ishlarini tergov qilishda xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorligini yanada kengaytirishning asosiy istiqbollari hamda sohadagi mavjud kamchiliklar haqida to'xtalib o'tilgan.

